



Odiljon ERNAZAROV^a

^aAssociate Professor, PhD

International Islamic Studies Academy of Uzbekistan

A.Qodiriy Str. 11, Tashkent, 100011, Uzbekistan

E-mail: odil.ernazarov.88@mail.ru

Abdurahmon TURSUNALIYEV^b

^bStudent International Islamic

Studies Academy of Uzbekistan

1A.Qodiriy Str. 11, Tashkent, 100011, Uzbekistan

E-mail: abuzarrshahristoniy@gmail.com

NESTORIANLIKNING MARKAZIY OSIYOGA KIRIB KELISHI TARIXI

Annotatsiya. Ushbu maqolada Markaziy Osiyoda xristianlikning, xususan, nestorianlik e'tiqodining tarqalish tarixi va rivojlanish bosqichlari tahlil qilingan. Shuningdek, nestorianlikning Vizantiyadagi teologik ziddiyatlar sababli Sosoniylar hududiga ko'chishi, qator cherkov kengashlari orqali mustaqillikka erishuvi hamda Markaziy Osiyodagi turkiy-mo'g'ul qabilalari (kerayitlar, naymanlar, ongutlar) orasida yoyilishi o'rganilgan. Sharq cherkovining missionerlik strategiyasidagi o'ziga xos jihatlari, jumladan, Nisibis maktabining o'rni va tibbiyotning diniy da'vat bilan uyg'unlashuvi masalalari muhokama qilingan. Xristian tabiblarining yunon tibbiyoti asosida mahalliy shamanistik an'analardan ko'ra samaraliroq muolajalar o'tkazishi Iso Masihni «buyuk tabib» sifatida tanitishga xizmat qilgani asoslangan. Bundan tashqari, V–VIII asrlardagi «So'g'd davri»da Ipak yo'li orqali savdo tarmog'ini yaratgan so'g'diylar orasida e'tiqodning yoyilishi, ularning suriyoniy yozuvidan foydalanishi (xristian so'g'd yozuvi) Turfon vohasidan topilgan qo'lyozmalar asosida tahlil etilgan.

Maqolada nestorianlikning ko'chmanchi turk-mo'g'ul qabilalari (kerayitlar, naymanlar, o'ng'utlar) orasida yoyilishi, xususan, XI asrda 200 ming kerayitning ommaviy xristianlashuvi jarayonida cherkovning pragmatik yondashuvlari (go'sht o'rni bilan ro'za tutishga ruxsat berilishi) hamda Mo'g'ul imperiyasida Sorxaktani-begim va Do'quz-xotun kabi nufuzli malikalarning xristianlarni himoya qilgani kabi tarixiy faktlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: Nestorianlik, Sharq cherkovi, Antioxiya maktabi, Nisibis, tarso, Urgut, Suyob, kerayitlar.

THE INTRODUCTION OF NESTORIAN CHRISTIANITY INTO CENTRAL ASIA

Abstract. The article analyzes the history of the spread and the developmental stages of Christianity, particularly the Nestorian faith, in Central Asia. It examines the migration of Nestorianism to the Sassanid territories due to theological conflicts in Byzantium, its achievement of independence through a series of church councils, and its spread among the Turkic-Mongol tribes (Keraites, Naimans, Onguts) in Central Asia. The article discusses the specific features of the missionary strategy of the Church of the East, including the role of the School of Nisibis and the integration of medicine with religious preaching. It is substantiated that the Christian physicians more effective treatments based on Greek medicine, compared to local shamanistic traditions, served to introduce Jesus Christ as the «Great Physician». Furthermore, the spread of the faith among the Sogdians, who established a trade network along the Silk Road during the «Sogdian period» in the 5th–8th centuries, and their use of the Syriac script («Christian Sogdian script») are analyzed based on manuscripts found in the Turpan oasis.

The article presents historical facts regarding the spread of Nestorianism among nomadic Turkic-Mongol tribes (Keraites, Naimans, Onguts). In particular, it highlights the pragmatic approaches of the church during the mass Christianization of 200,000 Keraites in the 11th century (such as allowing fasting with milk instead of meat) and the protection of Christians by influential queens like Sorghaghtani Beki and Doquz Khatun in the Mongol Empire.

Keywords: Nestorianism, Church of the East, School of Antioch, Nisibis, tarsi, Urgut, Suyab, Keraites.

KIRISH

Markaziy Osiyo tarixan turli sivilizatsiyalar va diniy e'tiqodlar chorrahasi bo'lgan. Markaziy Osiyo hududida xristianlik tarqalish tarixining ilk va o'rta asrlar bosqichi milodning boshlaridan to Temuriylar davrigacha bo'lgan ming yildan ortiq vaqtni o'z ichiga olib, mintaqa tarixidagi o'ziga xos transmadaniy jarayon hisoblanadi. Bu jarayonning markaziy ishtirokchisi tarixda «Nestorian cherkovi» nomi bilan tanilgan, ammo zamonaviy akademik va cherkov an'analari «Sharq cherkovi» yoki «Sharqiy Ossuriya cherkovi» deb ataluvchi tuzilma edi (Brock S., 1996: 23).

Dinshunoslik tadqiqotlari xulosasiga ko'ra, «nestorianlik» atamasi ilmiy doiralarda asosan ikki xil ma'noda talqin qilinadi. Birinchi ma'noda, u V asrda Konstantinopol patriarxi Nestoriy tomonidan ilgari surilgan va 431-yilgi Efes hamda 451-yilgi Xalkidon kengashlarida qoralangan diofizitlik (Iso Masihda ikki tabiat – ilohiy va insoniy tabiatning alohida mavjudligi) ta'limotiga ishora qiladi (Baum W., Winkler D. W., 2003: 4). Ikkinchi ma'noda esa ushbu atama Rim imperiyasidan tashqarida – avval Sosoniylar hududida, keyinchalik So'g'diyona, Yettisuv, Mo'g'uliston va Xitoyda tarqalgan xristianlik yo'nalishini ifodalash uchun qo'llaniladi (Baum W., Winkler D. W., 2003: 2).

Cherkov ichidagi buyuk bo'linishning ildizlari Vizantiyaning ikki yirik markazi – Aleksandriya va Antioxiya o'rtasidagi fundamental tafovutlarga borib taqaladi. Platon g'oyalariga tayangan Aleksandriya maktabi Bibliyani ramziy (allegorik) talqin qilib, Masihning ilohiy tabiatiga urg'u bergan bo'lsa, Aristotel qarashlari ta'siridagi Antioxiya maktabi matnning tarixiy va harfiy ma'nosini ustun qo'yar edi. Antioxiya ilohiyotchilari insoniyatning najot topishi uchun Masih to'liq va real inson bo'lishi shart deb hisoblaganlar. Shu bois, ular Masihda ilohiy va insoniy ibtidoalar aralashib ketmasligini va har biri o'z xususiyatini saqlab qolishini qat'iy himoya qildilar (Dickens M., 2001: 9-15). Ziddiyat 428-yilda, Antioxiya maktabi vakili Nestoriy Konstantinopol patriarxi etib tayinlangach, ochiq qarama-qarshilikka aylandi (Albayrak K., 2007: 15).

Nestorianlik o'zining mintaqadagi eng gullagan davrida Marv, Hirot, Samarqand, Buxoro va Shosh kabi shaharlarda metropoliyalarga ega bo'lgan. Xususan, Urgut (Samarqand) hududida topilgan xristian ibodatxonasi qoldiqlari va qoyatosh rasmlari mintaqada yirik xristian markazlari bo'lganligidan dalolat beradi. X-XI asrlarga kelib, bu e'tiqod shahar markazlaridan tashqariga chiqib, ko'chmanchi turk-mo'g'ul qabilalari

orasiga ham kirib bordi. Kerayitlar, naymanlar va o'ng'utlar kabi yirik qabilalar xristianlikni qabul qilishi natijasida Chingizxon imperiyasi va keyingi mo'g'ul davlatlarida (Elxoniylar, Chig'atoy ulusi) xristian malikalari va vazirlari muhim siyosiy mavqega ega bo'lishgan.

ASOSIY QISM

Bahs markazida Bibi Maryamga beriladigan «Theotokos» (Xudoning onasi) unvoni turar edi. Nestoriyning mantiqiy dalillariga ko'ra, abadiy va yaratilmagan Xudoning vaqtinchalik insondan tug'ilishi yoki o'lishi aqlga sig'maydigan holatdir. Uning fikricha, Maryam Xudoni emas, balki iloh bilan birlashgan insonni – Isoni dunyoga keltirgan. Shu sababli u murosaviy variant sifatida «Christotokos» (Masihning onasi) atamasini taklif qildi. Biroq bu taklif Aleksandriya patriarxi Kirill tomonidan keskin rad etildi. Kirill bu qarashni Iso Masihni ikki alohida shaxsga ajratib yuborish (diofizitlik) deb baholab, o'zining ilohiy hamda insoniy tabiatlar yagona va ajralmas bir tabiatda namoyon bo'lish (miafizit) ta'limotini qarshi qo'ydi. Aslida, bu tortishuv faqat diniy dogma ustida emas edi. Uning zamirida Sharqiy Rim imperiyasida yetakchilik uchun kurashayotgan qadimiy Aleksandriya va siyosiy jihatdan yuksalib borayotgan Konstantinopol o'rtasidagi hokimiyat talashuvi yotardi (Adams R.M., 2021: 368).

431-yilda chaqirilgan Efes kengashi xristian dunyosi tarixida hal qiluvchi burilish nuqtasi bo'ldi. Kengashning o'tkazilish tartibi Kirill Aleksandriyskiyning Nestoriy tarafdori bo'lgan Antioxiya delegatsiyasi hali yetib kelmasidan turib qaror qabul qilishi bu jarayonning naqadar siyosiy tus olganini ko'rsatardi. Natijada, Nestoriyning «bid'atchi» deb e'lon qilinib, imperiya hududidan surgun qilinishi uning minglab izdoshlarini Rim (Vizantiya) chegaralaridan tashqariga Sosoniylar hududiga ommaviy ko'chishlariga majbur etdi (Altungök A., 2014: 59).

Zardushtiylik davlat dini hisoblangan, Rim bilan doimiy urush holatida bo'lgan Fors hududida xristianlar doimo «Rim josuslari» sifatida gumon ostida yashaganlar. Shu bois, 484-yilgi Bet Lapat (suriyoniycha «Lapat uyi») – Sosoniylar imperiyasining markazlaridan biri bo'lgan Gondishapur shahrining suriyoniycha nomi sinodida Fors cherkovi rasman «nestorian» ta'limotini qabul qilib, Konstantinopol cherkovi bilan aloqalarni butunlay uzdi. Bu qaror orqali ular o'zlarining Fors hukmdorlariga sodiqligini

isbotladilar. Bu Sharq cherkoviga nafaqat omon qolish, balki Buyuk Ipak yo'li bo'ylab erkin harakatlanish va o'z ta'sirini Xitoyga qadar kengaytirish imkonini berdi (Vine A.R., 1937: 50).

Sharq cherkovining Vizantiyadan ajralishi bir kechada sodir bo'lmadi. Bu jarayon bir asr davom etgan, uchta asosiy cherkov kengashi (sinodi) orqali huquqiy va dogmatik jihatdan mustahkamlangan murakkab evolyutsion yo'l edi.

Ishoq sinodi (410-yil). Bu kengash unga raislik qilgan va ilk bor katolikos patriarxi darajasiga ko'tarilgan yepiskop Mar Ishoq nomi bilan ataladi. U Rim imperiyasidan kelgan elchi (yepiskop Maruta) va Sosoniylar shohi Yazdagird I bilan kelishgan holda ushbu kengashga asos solgan. Natijada, Is'hoq barcha fors xristianlarining rasmiy yetakchisi (katolikos) etib tayinlandi hamda sinod uning nomi bilan tarixda qoldi. Uning tarixiy ahamiyati shundaki, u xristianlikni Eronda taqiqlangan «dushman dini» maqomidan chiqarib, qonuniy tan olingan jamoaga aylantirdi. Garchi kengashda umumxristian Nikeya e'tiqod ramzi qabul qilingan bo'lsa-da (bu hali dogmatik ajralish yo'qligini bildiradi), ma'muriy jihatdan katta qadam tashlandi. Bu bilan imperiya ichida markazlashgan cherkov boshqaruvi o'rnatildi (Baumer C., 2016: 86).

Dadisho sinodi (424-yil). Ushbu tarixiy sinod nomi unga raislik qilgan va uni chaqirgan cherkov yetakchisi – katolikos Mar Dadisho I nomi bilan atalgan. Siyosiy bosimlar ostida chaqirilgan ushbu sinod Sharq cherkovi tarixidagi «Mustaqillik deklaratsiyasi» bo'ldi. Unda Sharq katolikosining Antioxiya, Rim yoki Konstantinopol patriarxlariga bo'ysunmasligi va uning qarorlari ustidan shikoyat qilish mumkin emasligi e'lon qilindi. Dadisho kengashi qaroriga ko'ra, «Sharq patriarxi faqat Masihning sudiga javob beradi». Bu qaror cherkovni tashqi siyosiy ta'sirlardan himoya qilib, fors shohlariga cherkovning Vizantiya agenti emasligini isbotlashga qaratilgan edi (Baumer C., 2016: 93).

Akakiy sinodi (486-yil). Xuddi oldingi Is'hoq va Dadisho sinodlari kabi, Akakiy sinodi ham ushbu yig'ilishga raislik qilgan cherkov rahbari – katolikos Mar Akakiy nomi bilan atalgan. Bu sinod cherkovning «nestorianlashuv» jarayonini yakunladi. Rasmiy ravishda diofizit xristologiya (Teodor Mopsuestiy ta'limoti asosida) qabul qilindi. Bu bilan Vizantiya cherkovi bilan barcha dogmatik aloqalar uzildi. Kengash ruhoniylarning, hattoki yepiskoplarning ham uylanishiga ruxsat berdi. Chunki zardushtiylikda tarkidunyochilik «yomonlikni ko'paytirish» va naslni to'xtatish sifatida qoralangan. Ruhoniylarga

oila qurishga ruxsat berish orqali xristianlar zardushtiy jamiyati qadriyatlariga moslashdilar (Baumer C., 2016: 95).

V asr oxirida Rim va Fors imperiyalari o'rtasidagi chegara nafaqat siyosiy, balki mafkuraviy to'siqqa ham aylandi. 489-yilda Vizantiya imperatori Zenonning «bid'atchilar uyasi» sifatida Edessadagi mashhur «Forslar maktabi»ni yopish haqidagi buyrug'i kutilmagan natijaga olib keldi. Buyuk ilohiyotchi Narsay (taxminan 399–502) boshchiligidagi ilohiyotchilar va talabalarning Fors hududidagi Nisibis shahriga ko'chib o'tishi natijasida bu yerda Sharq xristianligining markazi Nisibis maktabi tashkil topdi (Altungök A., 2014: 59). Nisibis maktabi o'z davri uchun maxsus ta'lim muassasasi vazifasini bajargan. Uning faoliyati 496-yilda qabul qilingan maxsus yozma nizom asosida tartibga solingan. O'quv fanlari keng qamrovli bo'lib, unda asosiy urg'u Antioxiya ekzegetikasiga berilgan bo'lsa-da, talabalar mantiq, falsafa va notiqlik san'atini chuqur o'zlashtirganlar (Vööbus A., 1962: 13).

Nisibisning yana bir o'ziga xosligi u yerda tibbiyot fanining chuqur o'qitilishi edi. Bu yerdan yetishib chiqqan bitiruvchilar Buyuk Ipak yo'li bo'ylab Sharqqa yo'l olganlarida, nafaqat voiz, balki malakali tabib sifatida ham tanilganlar. Bu omil Markaziy Osiyo aholisi orasida ularning obro'sini oshirishda va dinni qabul qilishda ma'lum darajada rol o'ynagan. Sharqning xristian ta'limi to'liq klassik suryoniy tilida olib borilgan. Nisibis bitiruvchilari bu tilni Mesopotamiyadan tortib to Xitoy chegaralarigacha olib bordilar. Natijada, suryoniy tili Osiyo xristianlari uchun «Lingua Sacra» (muqaddas til)ga aylandi (Ashurov B., 2015: 61).

MUHOKAMA

V–VIII asrlar Markaziy Osiyo tarixida «So'g'd davri» bo'ldi. Samarqand va Buxorodan chiqqan ushbu xalq vakillari Xitoy poytaxtidan tortib, Vizantiyagacha bo'lgan savdo tizginini o'z qo'llarida ushlab turdilar. Garchi so'g'd jamiyatining asosiy qismi zardushtiylik va qisman moniylikka e'tiqod qilgan bo'lsa-da, savdo vakillarining salmoqli qismi xristianlikni qabul qildi. Xristianlikni qabul qilish so'g'd savdogarlariga Yaqin Sharqdagi dindoshlari bilan ishonchli hamkorlik tarmog'ini yaratish imkonini berdi. Turfon vohasidagi (Sharqiy Turkiston) Bulayiq monastiri xarobalaridan topilgan minglab qo'lyozmalar shuni ko'rsatadiki, so'g'diylar suryoniy yozuvidan foydalanishgan. Bu «xristian so'g'd yozuvi» deb ataluvchi o'ziga xos

madaniy qorishma mahsulidir. Bugungi kunda Berlin va Londonda saqlanayotgan Turfon ekspeditsiyasi materiallari orasida «So'g'd Zaburi» va ikki tilli leksionariylar alohida o'rin tutadi (Dickens M., 2009: 22-42). Bu matnlar nafaqat diniy, balki filologik jihatdan ham bebaho bo'lib, Markaziy Osiyo xalqlari o'rtasidagi almashinuv darajasi qanchalik yuqori bo'lganini isbotlaydi.

Sharq cherkovi missionerlik strategiyasining o'ziga xos jihati – bu tibbiyot va diniy da'vatning uyg'unlashuvi edi. Eronning janubi-g'arbida joylashgan Gondishapur maktabi bu jarayonda o'z o'rniga ega bo'lgan. Bunday markazlarda suriyalik xristian olimlari antik yunon tibbiyoti durdonalarini (Gippokrat, Galen asarlari) saqlab qolgan va tarjima qilganlar. Natijada, Buyuk Ipak yo'li bo'ylab harakatlangan nestorian rohiblari shunchaki dindorlar emas, balki o'z davrining tibbiy bilimlariga ega mutaxassislar bo'lishgan. Bu ularga xon saroylaridan tortib, oddiy o'tovlargacha kirib borish imkonini beruvchi «tashrif qog'ozi»ni taqdim etgan (Vine A.R., 1937: 105).

Markaziy Osiyo ko'chmanchi xalqlari (turkiy va mo'g'ul qabilalari) an'anaviy shamanistik dunyoqarashga ega bo'lib, unda kasallik yovuz ruhlarning hujumi yoki ota-bobolar ruhining g'azabi sifatida talqin qilingan. Shamanlarning davolash usullari, asosan, shamanistik raqsga tushish va duolar o'qishdan iborat edi. Aynan shu nuqtada xristian tabiblari yunon tibbiyotiga asoslangan dorivor o'tlar, malhamlar va jarrohlik usullari bilan qilgan muolajalari ko'pincha shamanlarning afsunlariga qaraganda tezroq va samaraliroq natija bergan. Missionerlar bu holatdan ustalik bilan foydalanib, Iso Masihni «Buyuk tabib» (Christ the Physician) sifatida taqdim etdilar. Shunday qilib, tibbiyot Sharq cherkovi uchun missionerlik vositasiga aylandi (Dickens M., 2001: 2-3, 7).

Markaziy Osiyoda xristian jamoalari o'zlarini suryoniycha «nasraye» yoki «mshihaye» deb atagan bo'lsalar-da, mahalliy eroniy va turkiy xalqlar orasida ular asosan forscha «tarso» nomi bilan tanilgan. Fors tilidagi «tarsidan» (qo'rqmoq) fe'lidani olingan ushbu atama «xudodan qo'rquvchi», «taqvodor» ma'nolarini anglatadi (Zuuridinov O., 2021: 136). Bu atama mahalliy aholining xristian rohiblarining zohidona hayot tarziga bo'lgan hurmatini ifodalagan. «Tarso» so'zi mintaqa geografiyasida o'chmas iz qoldirgan. Bishkek yaqinidagi o'rta asr manbalarida qayd etilgan Tarsakent (Xristianlar shahri) buning yorqin misolidir. Qirg'iz xalqining «Manas» eposida «tarso» so'zi xristian jamoalarini ifodalash uchun qo'llanilgan. Yettisuv va Farg'ona vodiysidan topilgan, XIII–XIV asrlarga oid yuzlab qabrtoshlar ustidagi

yozuvlarda ham bu atama uchraydi. Eng hayratlanarlisi shundaki, bu toshlarda suryoniy yozuvi va xristian xochi bilan bir qatorda, o'lim sanalari ko'pincha «tovuq yili», «ilon yili» kabi turkiy 12 yillik hayvonlar nomidagi muchal hisobida ko'rsatilgan (Dickens M., Kolchenko V., 2023:44). Bu xristianlikning Markaziy Osiyo turkiy madaniyati bilan to'liq qorishib ketganligining inkor etib bo'lmaz moddiy dalilidir.

Marv (hozirgi Turkmaniston hududi) IV asrda Sharqiy xristianlik missiyasining strategik markazi sifatida muhim rol o'ynagan. Ma'lumotlarda qayd etilishicha, xristianlik ushbu hududda Bar Shabba tomonidan targ'ib qilingan. Bu davrda Marv nafaqat diniy, balki siyosiy va savdo yo'llari markazi bo'lgani sababli, xristian missiyalarining faol ishlashi uchun qulay sharoit yaratgan. Marv yepiskopligi 424-yilda tarixiy manbalarda qayd etilgan bo'lib, bu xristianlikning mintaqada mustahkam o'rnatilganini ko'rsatadi. Keyinchalik, 544-yilda Marv yepiskopligi metropoliya darajasiga ko'tarilgan, bu esa nestorianlik tuzilmasida uning siyosiy va diniy ahamiyatini oshirgan. Shu bilan birga, 644-yilda Marv metropoliti Iliya turkiy xalqlarni xristianlikka da'vat qilgani haqida ma'lumotlar mavjud bo'lib, bu mintaqada diniy missiya faoliyatining kengayganini tasdiqlaydi.

Samarqand, So'g'diyona mintaqasining markazi sifatida, VI–VIII asrlarda nestorianlik metropoliyasining muhim markaziga aylangan. Arab geograf olimlari Ibn Havqal va Istaxriy Samarqanddagi xristian jamoalari faoliyati haqida yozganlar. Ularning ma'lumotlariga ko'ra, bu shaharda xristian ibodatxonalari va faol diniy jamoalar mavjud bo'lgan (Mirzaeva D. M., 2021: 40-41). Bundan tashqari, mashhur sayyoh Marko Polo XIII asrda Samarqandga tashrif buyurganida, shaharda joylashgan Ioann cho'qintiruvchi nomidagi aylana cherkovni tasvirlab bergan. Bu xristianlikning uzoq davom etganini va mintaqaga chuqur singib ketganligini ko'rsatadi. Bu ma'lumotlar Sharqiy va Markaziy Osiyoda xristianlikning tarixi, rivojlanishi va turkiy xalqlar bilan aloqalari haqida qiymatli tarixiy manbalarni taqdim etadi.

Samarqanddan taxminan 40 km. janubda joylashgan Urgut (Sulaymontepa) hududidagi arxeologik qazishmalar, IX–XIII asrlarga oid xristianlik tarixini yoritishda muhim ahamiyatga ega bo'lgan topilmalarni keltirdi. Ushbu qazishmalar natijasida yirik xristian monastir majmuasi aniqlangan bo'lib, bu Markaziy Osiyoda nestorianlik an'analari mavjudligi va rivojlanishini tasdiqlaydi. Monastir majmuasi Sharqiy Suriya me'morchiligiga xos pishiq g'ishtdan qurilgan inshootlarni o'z ichiga oladi. Bu inshootlar tarkibida kichik ibodatxonalar, ruhoniylar

uchun hujralar va qo'shimcha yordamchi binolar mavjud bo'lgan (uzbek-travel.com). Qazishmalar davomida Qizilqoya va Qo'tirbuloq daralarida qoyatoshlarga o'yilgan suryoniy yozuvlari va xoch tasvirlari topilgan. Bu yozuvlar va xochlar mintaqadagi xristian jamoalarining diniy e'tiqodi va madaniy merosini namoyon etadi. Topilmalar qatorida bronza tutatqi idishi mavjud bo'lib, uning yuzasida Injil sahnalari tasvirlangan. Hozirda ushbu idish Ermitaj muzeyida saqlanadi. Arxeologik topilmalar tarixiy manbalar bilan mos keladi. Urgut hududi arab manbalarida iroqlik xristianlar yashaydigan «Vazkerd» monastiri sifatida tilga olingan bo'lib, bu topilmalar ushbu hududni tarixiy jihatdan identifikatsiya qilishga yordam beradi. Shu bilan birga, qazishmalar Markaziy Osiyoda Sharqiy xristianlikning tarixi va madaniy merosini chuqurroq o'rganish imkoniyatini yaratadi.

Yettisuv hududi (hozirgi Qirg'iziston va Qozog'istonning janubi-sharqi) xristianlikning turkiy dunyo bilan faol va o'zaro ta'sir ko'rsatgan mintaqasi sifatida tarixiy ahamiyatga ega. Ushbu hudud turkiy xalqlar, savdo yo'llari va siyosiy markazlar bilan chambarchas bog'liq bo'lgani sababli, xristian dini mintaqada mustahkam o'rin egallagan. Suyob (Oq-Beshim) qadimgi G'arbiy Turk xoqonligining poytaxti sifatida tanilgan. Arxeologik qazishmalar natijasida shaharda ikkita nestorian cherkovi aniqlangan. Birinchi cherkov VIII asrga tegishli bo'lib, u shahriston devorlaridan tashqarida joylashgan. Arxitekturasi o'ziga xos. Cherkov tarhi kvadrat ichiga chizilgan xoch shakli bilan ajralib turadi va gumbazli tomga ega. Ushbu inshoot Sharqiy xristianlik an'analarini o'zida mujassam etib, Suyob hududidagi diniy faoliyatning qanchalik rivojlanganini ko'rsatadi. Ikkinchisi esa X–XI asrlarni o'z ichiga olib, Qoraxoniylar davrida ham xristianlikning rivojlanishda davom etganini ko'rsatadi. Cherkovdan topilgan nefritdan yasalgan xochlar va suryoniy yozuvlari arxeologik hamda tarixiy ma'lumotlarni tasdiqlaydi (Litvinsky B.A., 1996: 145-148). Suyobdagi cherkovlar va topilmalar Yettisuv hududida xristianlikning tarixi, arxitekturasi va diniy hayotini o'rganishda muhim manba hisoblanadi. Shu bilan birga, bu topilmalar nestorianlikning turkiy dunyo bilan qanday o'zaro ta'sirda bo'lganini, diniy madaniyatning uzoq masofalarga tarqalganini yoritadi.

NATIJA

XI asr boshlarida qudratli Kerayit qabilasining ommaviy xristianlashuvi nestorianlik tarixida muhim voqea sifatida qayd etilgan. Tarixiy manbalarga ko'ra,

bu jarayon turkiy dunyoda xristianlikning kengayishi va uning siyosiy ta'sirini oshirish bilan bog'liq edi. Suriyalik tarixchi Bar-Ebrey va arab tarixchisi Mari ibn Sulaymon yozishicha, Kerayit xoni tog'larda adashib qolganida unga Avliyo Sergiy (Mar Sergius) ko'rinib, Masihga ishonish evaziga najot va'da qilgan. Ushbu voqea Kerayit qabilasining diniy e'tiqodiga sezilarli ta'sir ko'rsatdi va ularning xristianlikni qabul qilishiga sabab bo'ldi. Kerayit xoni Masihga ishonishni qabul qilgach, xristianlikni amaliy hayotga tatbiq etish masalalari yuzaga keldi. Marv metropoliti Abdisho va patriarx Ioann VI o'rtasidagi yozishmalarda nestorian missiyasining moslashuvchanligi va pragmatizmi namoyon bo'ladi. Xon cho'lda yashaganligi sababli ro'za vaqtida go'shtdan tiyilish masalasida patriarx unga sut mahsulotlari bilan ro'za tutishga ruxsat bergan. Shu pragmatik yechim bir vaqtning o'zida 200 000 kerayitni xristianlashtirishga imkon yaratdi (Mari ibn Sulaymon, 1927: 55-60).

Kerayitlarning xristianlashuvi va bu voqealar Yevropaga yetib borganida afsonaviy prester Jon (ruhoniyo Ioann) haqidagi rivoyatlar paydo bo'ldi. Bu afsona Yevropa xristianlari orasida Sharqdagi xristian qabilalarining qudrati va e'tiqodiga oid tasavvurlarni shakllantirdi. Kerayitlardan so'ng boshqa yirik turkiy qabilalar ham xristianlikni qabul qila boshlagan. Naymanlar G'arbiy Mo'g'ulistonda yashagan va Chingizxonning yuksalishi davrida asosan xristian bo'lgan qabila hisoblanadi. Ongutlar Xitoyning shimoliy chegaralarini qo'riqlagan turkiy qabilaga mansub xalqdir. Ular Chingizxonning sodiq ittifoqchilari bo'lib, faol xristianlar sifatida tanilgan. Uyg'urlar asosan moniylik va buddizmga e'tiqod qilgan bo'lsalar-da, ular orasida kuchli xristian jamoasi mavjud bo'lgan.

Mo'g'ul imperiyasining tashkil topishi Sharqiy xristianlik, xususan nestorianlikning Markaziy Osiyo va Sharqiy turkiy dunyoda gullab-yashnashi uchun qulay sharoit yaratdi. Mo'g'ul madaniyatida ayollar muhim rol o'ynagan va ko'plab xonimlar xristian qabilalaridan, ayniqsa kerayitlardan chiqqan. Ularning ta'siri nafaqat siyosiy, balki diniy barqarorlik va xristian jamoalarining himoyasini ta'minlashga ham qaratilgan edi. Sorxaktani-begim To'luyning xotini va to'rt buyuk xonning (Munke, Xubilay, Hulagu va Arig-Bug'a) onasi. Sorxaktani-begim xristian bo'lishiga qaramay, siyosiy barqarorlikni saqlash maqsadida barcha dinlarni qo'llab-quvvatlagan (en.wikipedia.org/wiki/Sorghaghtani_Beki). Do'quz-xotun Ilxoniyalar davlati asoschisi Hulagu xonning xotini. U ochiqchasiga xristianlikka e'tiqod qilgan va 1258-yilda Bag'dod

egallanganida xristian aholisining omon qolishini ta'minlagan. Shu bilan u Sharqiy xristianlikning Mo'g'ul imperiyasida xavfsiz rivojlanishini qo'llab-quvvatlagan (www.cbeinternational.org/resource/women-in-scripture-and-missio-on-lady-doquz/).

Bu faktlar Mo'g'ul imperiyasida xristianlikning siyosiy va ijtimoiy himoya ostida rivojlanganini ko'rsatadi. Buyuk xonlarning xristian ayollari faqatgina shaxsiy e'tiqod bilan cheklanib qolmasdan, balki imperiya hayotida xristian jamoalarining barqarorligini ta'minlashga hissa qo'shgan.

XIII asr oxiri va XIV–XV asrlarda Markaziy Osiyoda nestorianlik tarixi sezilarli o'zgarishlarga duch keldi. Mo'g'ul imperiyasi davrida nestorianlik keng tarqalgan bo'lsa-da, XV asr boshlariga kelib, bu dinning mintaqadagi izlari kamaydi. Bu jarayon ko'plab omillarning uyg'unlashuvi natijasida yuz berdi.

Mo'g'ul hukmdorlarining ba'zi siyosiy qarorlari va e'tiqoddagi o'zgarishlar mintaqadagi xristian jamoalarining faoliyatiga ta'sir ko'rsatdi. Misol uchun, G'azan-xon va Tarmashirin davrida islom dini davlat dini darajasiga ko'tarildi.

XIV asrda yuzaga kelgan qora o'lim (vabo) Yettisuv hududida aholi sonining keskin kamayishiga sabab bo'lgan. Qabr toshlarida «vabodan o'ldi» degan yozuvlar ko'pligi bu davr epidemik vaziyatning jiddiyligini ko'rsatadi. Kasallikning oqibatlari barcha jamoalarga xristianlarga ham, musulmonlarga ham ta'sir qilgan (stir.ac.uk).

Savdo yo'llari, qishloq xo'jaligi va siyosiy barqarorlikdagi o'zgarishlar ham diniy jamoalarning soni va faoliyatiga ta'sir qilgan. Shu bilan birga, xristianlar va boshqa diniy jamoalar mintaqada turli darajada moslashgan. Natijada, XV asr boshlariga kelib, xristian jamoalarining soni kamaygan. Ammo bu jarayon ko'plab omillarning murakkab kombinatsiyasi bilan bog'liq bo'lib, faqat bir sababga bog'lash xolis bo'lmaydi.

XULOSA

Qiyosiy dinshunoslik nuqtai nazaridan tahlil qilinganda, Markaziy Osiyodagi nestorianlik tarixi shunchaki diniy e'tiqodning tarqalishi emas, balki mintaqaning murakkab konfessional manzarasi va sivilizatsiyalar chorrahasidagi beqiyos o'rnidir. Sharq cherkovi Vizantiyadagi dogmatik ziddiyatlar sababli ta'qibga olingan bo'lsa-da, aynan shu ajralish uning Sharq xalqlari mentalitetiga, xususan, zardushtiylik va ko'chmanchi xalqlarning shamanistik e'tiqodlar tizimiga moslashuvchanligini ta'minladi.

Biroq tarixiy konfessional jarayonlarning o'zgarishi, xususan, mo'g'ul xonliklarining islom dinini rasmiy davlat dini sifatida qabul qilishi, savdo yo'llaridagi inqirozlar hamda demografik halokatlarga sabab bo'lgan XIV asrdagi qora o'lat (vabo) epidemiyasi nestorian jamoalarining asta-sekin mahalliy islomlashgan xalqlar tarkibiga to'vliq singib ketishiga olib keldi.

Markaziy Osiyodagi nestorianlik tarixi Sharqiy xristianlikning mintaqadagi merosini ko'rsatadi. Nestorianlik nafaqat diniy e'tiqod sifatida, balki madaniy, ilmiy va siyosiy hayotga ham ta'sir ko'rsatgan. Bu sivilizatsiya turkiy, eroniy va semit madaniyatlarini o'zaro bog'lab, mintaqada yozuv, tibbiyot va savdo tizimlarining rivojlanishiga hissa qo'shgan. Shu bilan birga, nestorianlikning mintaqada yo'q bo'lib ketishi ko'plab omillarga bog'liq bo'lgan. Natijada, nestorianlik mintaqada o'ziga xos diniy va madaniy maydon yaratgan bo'lsa-da, XV asrga kelib, jamoalarning soni kamaygan. Bugungi arxeologik topilmalar – O'zbekistondagi monastir xarobalari va Qirg'izistondagi qabr toshlari bu tarixiy jarayonlarning dalillari sifatida xizmat qiladi.

Yakuniy xulosa o'rnida shuni ta'kidlash lozimki, xristianlikning ushbu tarmog'i Markaziy Osiyo konfessional tarixining ajralmas va o'ta muhim qatlamidir. Bugungi kunda qadimgi So'g'diyona markazi bo'lmish Urgutdagi monastir xarobalari, Yettisuv (Suyob) va Farg'ona vodiysidan topilgan arxeologik dalillar ushbu yuksak bag'rikenglik va madaniy integratsiya o'tmishining guvohi bo'lib qolmoqda. Ushbu meros mintaqada tarixida turli sivilizatsiyalar qanday qilib bir-birini inkor etmasdan, balki o'zaro kelishib va tinch-totuv yashaganini o'rganishda tadqiqotlar uchun beqiyos manba bo'lib xizmat qiladi.

MANBA VA ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Ahmet Altungök. (2014). Erken Ortaçağlarda İran ve Bizans İlişkilerinde Nestûrî Hristiyanlarının Rolü. Akademik İncelemeler Dergisi, 9(2), 45-67.
2. Arthur Vööbus. (1962). The Statutes of the School of Nisibis. Estonian Theological Society in Exile.
3. Aubrey R.Vine. (1937). The Nestorian Churches: A Concise History of Nestorian Christianity in Asia from the Persian Schism to the Modern Assyrians. Independent Press.
4. Barakatullo Ashurov. (2015). Sogdian Christian Texts: Socio-Cultural Observations. Archiv Orientalní, 83(1), 53-70.

5. Boris Anatolyevich Litvinskiy et al. (1996). History of Civilizations of Central Asia (Volume III). UNESCO.
6. Christoph Baumer. (2016). The Church of the East: An Illustrated History of Assyrian Christianity. I.B. Tauris.
7. Dickens, Mark. (2009). Multilingual Christian Manuscripts from Turfan. Journal of the Canadian Society for Syriac Studies, 9, 22-42.
8. Dilfuza M.Mirzaeva. (2021). Ancient Religions In Central Asia. Distribution Of Christianity In Tashkent Oasis. International Journal of Academic Information Systems Research (IJAISR), 5(4).
9. Elias of Merv. (n.d.). Grokipedia. https://grokipedia.com/page/elias_of_merv
10. <https://www.stir.ac.uk/research/hub/file/1394484>.
11. Kadir Albayrak. (2007). Nestûrîlik. TDV İslâm Ansiklopedisi (Cilt 33, s. 15-17). TDV Yayınları.
12. Mari ibn Sulaymon. (1927). Chronicle of the Nestorians (Margoliouth, David Samuel, Trans.). Oxford.
13. Mark Dickens. (2001). Nestorian Christianity in Central Asia. Universität Bremen.
14. Mark Dickens & Valerii Kolchenko. (2023). Medieval Christian Gravestones from Krasnaya Rechka. Bulletin of the IICAS, 35.
15. Robert Merrihew Adams. (2021). Nestorius and Nestorianism. The Monist, 104(3).
16. Sebastian Brock. (1996). The «Nestorian» Church: A Lamentable Misnomer. Bulletin of the John Rylands Library, 78(3), 23-35.
17. Sorghaghtani Beki. (n.d.). In Wikipedia. https://en.wikipedia.org/wiki/Sorghaghtani_Beki
18. Stirling University. (n.d.). Research Hub File. Suleimantepa. (n.d.). Uzbek Travel. <https://uzbek-travel.com/about-uzbekistan/monuments/suleimantepa/>
19. Vazkard - Samarqand viloyatidagi sirlidir manzillar: IX-XIII asrlarga oid nestorian ibodatxonasi. (2020, 30-iyun). Visit Samarkand Facebook sahifasi. <https://www.facebook.com/visitsamarkand/posts/2658554221029710/>
20. Wilhelm Baum & Dietmar W.Winkler. (2003). The Church of the East: A Concise History. RoutledgeCurzon.
21. Women in Scripture and Mission: Lady Doqoz. (n.d.). CBE International. <https://www.cbeinternational.org/resource/women-in-scripture-and-mission-lady-doqoz/>
22. Өскөнбай Зууридинов. (2021). Несторианизм жана анын Орто Азияга келүүсү. Ош мамлекеттик университети теология факультетинин илимий журналы, (30).
3. Aubrey R.Vine. (1937). The Nestorian Churches: A Concise History of Nestorian Christianity in Asia from the Persian Schism to the Modern Assyrians. Independent Press.
4. Barakatullo Ashurov. (2015). Sogdian Christian Texts: Socio-Cultural Observations. Archiv Orientalní, 83(1), 53-70.
5. Boris Anatolyevich Litvinskiy et al. (1996). History of Civilizations of Central Asia (Volume III). UNESCO.
6. Christoph Baumer. (2016). The Church of the East: An Illustrated History of Assyrian Christianity. I.B. Tauris.
7. Dickens, Mark. (2009). Multilingual Christian Manuscripts from Turfan. Journal of the Canadian Society for Syriac Studies, 9, 22-42.
8. Dilfuza M.Mirzaeva. (2021). Ancient Religions In Central Asia. Distribution Of Christianity In Tashkent Oasis. International Journal of Academic Information Systems Research (IJAISR), 5(4).
9. Elias of Merv. (n.d.). Grokipedia. https://grokipedia.com/page/elias_of_merv
10. <https://www.stir.ac.uk/research/hub/file/1394484>.
11. Kadir Albayrak. (2007). Nestûrîlik. TDV İslâm Ansiklopedisi (Cilt 33, s. 15-17). TDV Yayınları.
12. Mari ibn Sulaymon. (1927). Chronicle of the Nestorians (Margoliouth, David Samuel, Trans.). Oxford.
13. Mark Dickens. (2001). Nestorian Christianity in Central Asia. Universität Bremen.
14. Mark Dickens & Valerii Kolchenko. (2023). Medieval Christian Gravestones from Krasnaya Rechka. Bulletin of the IICAS, 35.
15. Robert Merrihew Adams. (2021). Nestorius and Nestorianism. The Monist, 104(3).
16. Sebastian Brock. (1996). The «Nestorian» Church: A Lamentable Misnomer. Bulletin of the John Rylands Library, 78(3), 23-35.
17. Sorghaghtani Beki. (n.d.). In Wikipedia. https://en.wikipedia.org/wiki/Sorghaghtani_Beki
18. Stirling University. (n.d.). Research Hub File. Suleimantepa. (n.d.). Uzbek Travel. <https://uzbek-travel.com/about-uzbekistan/monuments/suleimantepa/>
19. Vazkard - Samarqand viloyatidagi sirlidir manzillar: IX-XIII asrlarga oid nestorian ibodatxonasi. (2020, 30-iyun). Visit Samarkand Facebook sahifasi. <https://www.facebook.com/visitsamarkand/posts/2658554221029710/>
20. Wilhelm Baum & Dietmar W.Winkler. (2003). The Church of the East: A Concise History. RoutledgeCurzon.
21. Women in Scripture and Mission: Lady Doqoz. (n.d.). CBE International. <https://www.cbeinternational.org/resource/women-in-scripture-and-mission-lady-doqoz/>
22. Өскөнбай Зууридинов. (2021). Несторианизм жана анын Орто Азияга келүүсү. Ош мамлекеттик университети теология факультетинин илимий журналы, (30).

REFERENCES

1. Ahmet Altungök. (2014). Erken Ortaçağlarda İran ve Bizans İlişkilerinde Nestûrî Hristiyanlarının Rolü. Akademik İncelemeler Dergisi, 9(2), 45-67.
2. Arthur Vööbus. (1962). The Statutes of the School of Nisibis. Estonian Theological Society in Exile.
3. Aubrey R.Vine. (1937). The Nestorian Churches: A Concise History of Nestorian Christianity in Asia from the Persian Schism to the Modern Assyrians. Independent Press.
4. Barakatullo Ashurov. (2015). Sogdian Christian Texts: Socio-Cultural Observations. Archiv Orientalní, 83(1), 53-70.
5. Boris Anatolyevich Litvinskiy et al. (1996). History of Civilizations of Central Asia (Volume III). UNESCO.
6. Christoph Baumer. (2016). The Church of the East: An Illustrated History of Assyrian Christianity. I.B. Tauris.
7. Dickens, Mark. (2009). Multilingual Christian Manuscripts from Turfan. Journal of the Canadian Society for Syriac Studies, 9, 22-42.
8. Dilfuza M.Mirzaeva. (2021). Ancient Religions In Central Asia. Distribution Of Christianity In Tashkent Oasis. International Journal of Academic Information Systems Research (IJAISR), 5(4).
9. Elias of Merv. (n.d.). Grokipedia. https://grokipedia.com/page/elias_of_merv
10. <https://www.stir.ac.uk/research/hub/file/1394484>.
11. Kadir Albayrak. (2007). Nestûrîlik. TDV İslâm Ansiklopedisi (Cilt 33, s. 15-17). TDV Yayınları.
12. Mari ibn Sulaymon. (1927). Chronicle of the Nestorians (Margoliouth, David Samuel, Trans.). Oxford.
13. Mark Dickens. (2001). Nestorian Christianity in Central Asia. Universität Bremen.
14. Mark Dickens & Valerii Kolchenko. (2023). Medieval Christian Gravestones from Krasnaya Rechka. Bulletin of the IICAS, 35.
15. Robert Merrihew Adams. (2021). Nestorius and Nestorianism. The Monist, 104(3).
16. Sebastian Brock. (1996). The «Nestorian» Church: A Lamentable Misnomer. Bulletin of the John Rylands Library, 78(3), 23-35.
17. Sorghaghtani Beki. (n.d.). In Wikipedia. https://en.wikipedia.org/wiki/Sorghaghtani_Beki
18. Stirling University. (n.d.). Research Hub File. Suleimantepa. (n.d.). Uzbek Travel. <https://uzbek-travel.com/about-uzbekistan/monuments/suleimantepa/>
19. Vazkard - Samarqand viloyatidagi sirlidir manzillar: IX-XIII asrlarga oid nestorian ibodatxonasi. (2020, 30-iyun). Visit Samarkand Facebook sahifasi. <https://www.facebook.com/visitsamarkand/posts/2658554221029710/>
20. Wilhelm Baum & Dietmar W.Winkler. (2003). The Church of the East: A Concise History. RoutledgeCurzon.
21. Women in Scripture and Mission: Lady Doqoz. (n.d.). CBE International. <https://www.cbeinternational.org/resource/women-in-scripture-and-mission-lady-doqoz/>
22. Өскөнбай Зууридинов. (2021). Несторианизм жана анын Орто Азияга келүүсү. Ош мамлекеттик университети теология факультетинин илимий журналы, (30).